XALQ DEPUTATLARI QO‘RG‘ONTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-aprel VII-4-34-1-23-K/25 Qo‘rg‘ontepa tumani

Andijon viloyati va Qo‘rg‘ontepa tumani komissiyalari tomonidan taqdim etilgan tumandagi 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari S.Mamarasulovning hisoboti.

Qo‘rg‘ontepa tumani Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil 13-noyabr kungi 01/13-543 sonli murojaatnomasi hamda Andijon viloyati hokimligining 2025-yilda 10-yanvardagl 20/59-10-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Andijon viloyati komissiyasining Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 4 ta geografik ob’ekt (mahalla) ni qayta nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

Andijon viloyati hokimligi huzuridagi geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2025-yil 10-yanvardagi 20/59-10-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Andijon viloyati komissiyasining Qo‘rg‘ontepa tumani Qorasuv shahridagi 4 ta geografik ob’ekt (mahalla nomlari) ni nomlash bo‘yicha taklifi ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, ekspert komissiyasi xulosasasiga ko‘ra;

Qo‘rg‘ontepa tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan 4 ta geografik ob’ektni nomlari Qorasuv shahri Birlik-1-*Shosh tepa*, Zahiriddin Muhammad Bobur-1-*Karvon yo‘li*, Mustaqillik-1-*Qadriyat,* Yuksalish-1-*Qorasuv* nomlariga o‘zgartirish bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining "Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risidagi, 303-son qonun hujjatlari talablariga muvofiq, 205 yil 28-yanvar kuni 05-19-1284-sonli xulosasiga asosan qayta nomlash yoki nomlarga belgilangan tartib asosida tahlil qilish yuzasidan muvofiq deb topilgan.

O‘zbekiston Respublikasining "Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida" gi 303-son qonun hujjatlariga asosan 4 ta muvofiq deb topilgan Qorasuv shahari Birlik-1-*Shosh tepa*, Zahiriddin Muhammad Bobur-1-*Karvon yo‘li*, Mustaqillik-1-*Qadriyat,* Yuksalish-1-*Qorasuv* mahalla fuqarolar yig‘inlarining nomlarini nomlash ko‘zda tutilgan.

Mahalla nomlarini almashtirish jarayonida, Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi matbuoti hamda Qo‘rg‘ontepa haqiqati gazetasida keng yoritib borish, mahalla uyushmasi faollari, tegishli tashkilotlar ishtirokida aholi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazish, nomlarni almashtirish yuzasidan tumandagi 101-102-103,104 aholiga tez va sifatli yordam ko‘rsatish bo‘limlariga yozma ma’lumotlar kiritish belgilandi.

Shu bilan birga yuqoridagi nomi keltirilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining nomlarini almashtirish jarayonida qonunda belgilangan talablarga mos ravishda muxirlarni almashtirish, kadastr agentligi bo‘limining platformasiga nomlarni kiritish, ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlarida mavjud tashkilotlarga yetkazish hamda mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli bo‘lgan xat-hujjatlarni almashtirish ko‘zda tutilgan.

Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tumani Kengashi ta’kidlaydiki O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari soxasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari xaqida”gi 295-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi xuzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan taqdim etilgan xulosalar xamda tuman komissiyasi takliflarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24 moddalarini qo‘llab Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tuman Kengashi.

QAROR QILADI

1.Qo‘rg‘ontepa tumani hokimi o‘rinbosari S.Mamarasulovning tumandagi 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularning qayta nomlash bo‘yicha Respublika ekspert komissiyasi xulosasi hamda Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman Komissiyasining 2024 yil 10 oktabrdagi № 01/21-65-sonli bayonnomasiga ko‘ra;

Respublika Geografik ob’ektlarga nom berish, ekspert komissiyasi xulosasiga ko‘ra tumandagi 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarini qayta nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin. (ro‘yxat ilova qilinadi)

2.Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mamarasulov) O‘zbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (Z.Qaxramonov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (K.Abduraxmonov) qayta nomlangan 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlariga ularning nomlar yozilgan metall ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni o‘rnatilishini nazorat qilish hamda tuman hokimligi soati va ko‘rsatilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida tushuntirish ishlari olib borilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (Z.Qaxramonov) tumandagi qayta nomlangan 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli bo‘lgan avvalgi dumaloq muhr va tamg‘alarini belgilangan tartibda yo‘q qilib , yangi dumoloq muhr va tamg‘alarni tayyorlab berish yuklatilsin.

4.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Yunusovga nomlari muvofiq deb topilgan tumandagi qayta nomlangan 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari nomlash harajatlarini mablag‘ bilan ta’minlash, mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini ta’minlasin.

5.Tuman hokimining Matbuot xizmati (M.Maxmudov), “Qo‘rg‘ontepa xaqiqati” gazetasi (N.Musaeva), ushbu qaror bajarilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida hokimlikning ijtimoiy tarmoq sahifalarida yoritib borsin.

6.Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari S.Mamarasulovga, nazoratini olib borish Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat, sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi O.Madraximova zimmalariga yuklatilsin.

T/R	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	mahalla	Qo'rg'ontepa tumani	Birlik-1	Shosh tepa	Shosh tepa Shoshtepa- "Geografik tumani obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilishi" qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	mahalla	Qo'rg'ontepa tumani	Zahiriddin Muhammad Bobur-1	Karvon yo`li	Qonun hujjatlari tumani talablariga muvofiq.
3.	mahalla	Qo'rg'ontepa tumani	Mustaqillik-1	Qadryat	Qonun hujjatlari tumani talablariga muvofiq.
4.	mahalla	Qo'rg'ontepa tumani	Yuksalish-1	Qorasuv	Qonun hujjatlari tumani talablariga muvofiq.

Kengash raisi

XALILOV ALISHER OLIMJONOVICH